

ULUG'BEK MADRASASI VA UNDA YETISHIB CHIQQAN OLIMLAR

Abduhamidov Doniyorek Yodgorxoja o'g'li,

Namangan davlat universiteti, Tarix yonalishi talabasi

Tel +998941157045

E-mail: doniyorbekabdulhamidov@gmail.com

Annotasiya: *Mazkur maqolada Ulug'bek madrasasining qurilishi uning ilm fan taraqqiyotida tutgan roli va unda yetishib chiqqan olimlar haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Samarqand, Ulug'bek madrasasi, Ulug'bek rasadxonasi,*

Samarqand bunyod etilgan davrdan to hozirgi vaqtgacha murakkab tarixiy jarayonni bosib o'tdi. Binolarning ichki devorlari o'yib ishlangan yog'och bilan bezatilar edi. Zahiriddin Muxammad Boburning so'zlariga qaraganda Samarqandning bozor maydonida joylashgan Masjidi Muqattaning devorlari va shifrlari naqsh solingan ayrim yog'och bo'laklari bilan bezatilgan edi. Jaxondagi eng qadimiy shaharlardan biri bo'lgan Samarqand Sharqda yirik savdo markazi sifatida mashhur bo'lgan. Ulug'bek davrida qurilish ishlari rivojlangan; bir tomondan yangi yangi imoratlar qad ko'tardi, ikkinchi tomondan, ungacha boshlangan qurilishlar nihoyasiga yetkazildi. Ulug'bek o'z dushmanlarini uzil - kesil tinchitib ulgurmasdan 1417- yil uning farmoni bilan Buxoroda Samarqandda (1420 yil), G'ijduvonda (1432-1433-yillar) madrasalar, Marvda diniy mahkamalar (Abdurazzoq) qurildi. Samarqandda mashhur rasadxona qad ko'taradi. Mashhur Navoiy bunday degan edi "Ulug'bekning butun qarindosh urug'lari vafot etib ketdi. Bizning zamonamizda ularni kim eslayapti? Ammo Ulug'bek fanga qo'l uzatib ko'pgina narsalarga erishdi". Fanga bo'lgan zo'r muhabbati, katta qobiliyati, mehnatsevarligi tufayli Ulug'bek astronomiya maktabining asoschisi va rahbari sifatida ajoyib muvaffaqiyatlarga erisha oldi. Ulug'bek o'zini ilmiy ishga bag'ishlab va o'z imkoniyatlaridan yaxshi foydalanib Samarqandda madrasa qurdirdi. Ulug'bek madrasa qurilgandan keyin unda ta'lim beradigan olimlarni o'zi tanladi. Ulug'bek avval ular bilan suhbatlashib, ularning ilmiy malakasi yetarli ekanligiga ishonch xosil qilgach ishga tayinladi. [1.B 217-220]

Temuriylar davrida islom ta' qiqqlari bartaraf etila boshlangan, voqeaband tasvirlar qaytadan jonlangan. Devorlarda to'ylar, mashoquq mutriblar, amirning o'z rasmi, malika va ularning qarindosh urug'lari, olimlarni qabul qilish marosimlari singari tasvirlar ishlangan. Ulug'bek rasadxonasida ham tasviriy manzaralar ishlangan,

ularda to'qqiz qavat osmonu yetti qavat yer, sobitu sayyoralar, tog'lar, dengizlar, sahrolar aks ettirilgan. Bu davr tasviriy san'atning asosiy vazifasi hukumronlarning kuch - qudrati, sarvati, harbiy shavkatini ulug'lashdan iborat bo'lgan. Buxoro shahridagi madrasa Mirzo Ulug'bek barpo ettirgan uch madrasaning eng qadimiysidir. Ushbu madrasa to'g'ri to'rtburchak shaklida, old eshigi serhasham peshtoqli ishlangan. Kiraverish - yo'lak (miyonxona) ning bir tomonida darsxona, ikkinchi tomonida masjid joylashgan. Miyonxonaning ikkinchi qavatida kutubxona faoliyat yuritgan. Madrasa hovlisida yana ikkita peshtoq bo'lib, ularning har ikki tomonida minoralar qurilgan. Peshtoqlar pastidan yuqorisagacha bejirim g'ishtchalar, guldor koshinlardan ishlangan hoshiyador naqshlar bilan bezatilgan. Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra madrasaning 80 ta xonasi bo'lgan. Unda o'qish muddati 15 yildan 20 yilgacha davom etgan. O'qish uchun yiliga 3.5 tillo haq to'langan. O'qish kun bo'yi davom etgan, darslar erkin suhbat shaklida o'tkazilgan. G'ijduvonda bunyod etilgan madrasa nisbatan kichik va soddaroqdir. Madrasa bir qavatli, tarxi kvadrat bo'lib, hovli, masjid, darsxona yotoqxonalaridan iborat. Binoning old tomonida peshtoq uning yonlarida binolar barpo etilgan. Eshik qarshisida g'arbiy devorga ravoq ishlangan, uning ichi koshin bilan bezatilgan. Hovlining ikki yonida beshtadan hujra bor. Ushbu madrasa oxirgi marta 2003 - yil ta'mirlangan. Ulug'bek madrasasi ekspluatatsiya qilish davrida tashqi ta'sirlar, zilzilalar va ichki janglar oqibatida jiddiy talofat ko'rgan. Ulug'bek madrasasi gumbazi Sharqda eng katta gumbazlar qatoridan o'rin egallagan. 1428 - 1429 - yillarda Samarqandda Ulug'bek rasadxonasi qurilgan. Rasadxona binosi yo'qolib ketgan bo'lgan.[2.B 177-178]

Ulug'bek 1420 - 1429 - yillar Samarqand yaqinidagi Obi - Rahmat tepaligiga rasadxona qurdirdi. Bino uch qavatli to'garak shaklida bo'lib diametri 46 metr, balandligi 30 metrgacha edi. Bu haqda Zahiriddin Muxammad Bobur ham ma'lumot bergan.

Rasadxona haqida tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy quyidagicha yozadi: " Samarqandning shimoliy tomonida sal sharqqa ogishgan tomon tanlandi. Mashhur munajjimlar bu ishni boshlab yuborish uchun yulduz ko'rsatgan hayrli kishini aniqlab berdilar. Rasadxonaning asosiy quroli - burchak o'lchanadigan juda ulkan asbob (vertikal doiradan) iborat bo'lib uning radiusi 40, 212 metr, yoyining uzunligi 63 metrga teng edi. Bu Vyatkinni inshoot qoldig'i katta kvadrantning bir qismidan boshqa narsa emas, uning yarmi ufq sathidan past bo'lib, ikkinchi yarmi esa ufqdan yuqoriga chiqib turar edi degan fikrga olib keldi.

Akademik Qori Niyoziy va astranom G'iyos Jalolovlar fikricha, bu asbob kvadrant emas, balki sekstantdir. U janubdan shimolga qaratib, meridian chizig'i

bo'yicha anchagina aniq o'rnatilgan. Ularning fikrini V.N Kastelskiy va V.P. Shcheglovlarning tekshiruvlari ham tasdiqlaydi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va Arxeologiya institutining professori Shishkin rahbarligida uzoq yillar tekshirish ishlar olib borildi va rasadxonaning o'rnini sinchiklab o'rganib chiqildi. Natijada Zahiriddin Muxammad Boburning rasadxona binosi haqida yozganlari ham to'g'ri ekanini tasdiqlandi. Arxitektura V. A. Nilsonning fikricha rasadxona silindr shaklidagi kattakon bir butun bino bo'lgan.

O'zbekiston hukumati yodgorlikning qoldiqlarini o'rganish va saqlab qolishga katta e'tibor berdi. 1949 - yil rasadxona o'rniga yoshda yodgorlik o'rnatildi. 1964 - yili esa Ulug'bek yodgorlik muzeyi qurib tugallandi va tantanali ravishda ochildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. И. М. Муминов. Самарканд тарихи Т.: ФАН - 1971
2. М. М. Vohitov. Me'morchilik Т.: Tafakkur nashriyoti - 2010
3. А. Abdurahmonov. Ulug'bek Akademiyasi Т.: - 1994